O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 28
2025 yil 29 “ avgust

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat
pedagogika instituti rektori
Sh.Sh.Negmatova
2025 yil “ ”

MUSIQA O‘QITISH METODIKASI. MAKATAB REPERTURI FANINING O‘QUV DASTURI

2- kurs
(kunduzgi)

Bilim sohasi:	**100000 - Ta’lim**
Ta’lim sohasi:	**110000 – Ta’lim**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60110600 – Musiqa ta’lim**

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
MO‘Met.MR.13408	2025-2026	3-4	8
Fan/mavzu turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		5/4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Musiqa o’qitish metodikasi. Maktab Repertuari	120 (60/60)	120 (60/60)	240

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanining maqsadi: bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligida, umumdidaktik tamoyillar, shakllar, musiqa o’qitish usul-metodlar tizimini tushunish orqali, umumta’lim maktablarida, maktabgacha ta’lim mussalarida, musiqa dars va mashg‘uoltlarini sifatli tashkil etishga o‘rgatishdan iborat

Fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- **Ta’limiy vazifa:** talabalarga ta’lim tizimida shaxs madaniyati, ma’naviyati to‘g‘risida keng tasavvur berish; musiqa tarbiyasining shaxs kamolotidagi o‘rnini ilmiy asosda tushuntirish.
- **Axborotiy vazifa:** mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, **“Ta’lim to’grisidagi qonu”** va boshqa chiqayorgan Farmon va Qarorlar ijrosini ta’minlash va zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar bilan tanishtirish.

Talabalarga musiqa ta’limi sohasidagi yangi konsepsiyalar, dastur va darsliklar haqida ma’lumot berish.

- **Metodik vazifa:** dars ishlanmalarini (konspektlarini) tuzish va dars loyihalarini ishlab chiqish vas hu asosida taqdimot salydlarini tayyorlash, shu asosida darslarni maqsadli tashkil etish ko’nikmalari, mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash ko‘nikmasini rivojlantirish; musiqani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalana bilishga o‘rgatish.
- **Didaktik vazifa:** har bir sinf o‘quvchilarining yosh **psixologik-fiziologik xususiyatlariga** mos ravishda musiqani o‘qitish metod va usullarini to‘g‘ri tanlash, dars jarayonida tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish ko‘nikmasini shakllantirish, hamda o‘qitish jarayonida individual va differensial yondashuvlarga amal qilish. Masalan, kichik sinflarda sodda va qiziqarli musiqiy o‘yinlardan foydalanish, o‘rta sinflarda bahs-munozara va guruhlarda ishlash usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir o’quvchini qiziqish, qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olish kabi.
- **Tarbiyaviy vazifa:** musiqa darslari orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, estetik did, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash. Bu vazifa **maktab repertuari** orqali amalga oshadi: o‘quvchilar bolalarga mo‘ljallangan eng yaxshi milliy qo‘shiqlar, mumtoz ashulalar, xalq kuylarini o‘rganish jarayonida go‘zal fazilatlar singdiriladi.
- **Ilmiy-tadqiqot vazifasi:** talabalarni mustaqil fikrlashga, izlanishga, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatish. Kurs davomida talabalarga kurs ishlari, kuzatish va tajriba-sinov mashg‘ulotlari topshiriladi. Bu esa ularning ijodiy va analitik salohiyatini oshiradi.
- **Amaliy vazifa:** talabalarning amaliy mashg‘ulotlarda nazariy bilimlarni qo‘llay olishiga erishish. Ma’ruza mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim berilgan bilimlarni **amaliy darslar**, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida tatbiq etish ko‘zlanadi. Masalan, talabalar **maktab amaliyotiga** chiqib, ochiq dars o‘tishlari, yetuk o‘qituvchilarning darslarini kuzatib, tajriba almashishlari mumkin.

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL: MUSIQA O‘QITISH METODIKASI FANINI O’RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TARIXIY TARAQQIYOTI

1- MAVZU: Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari fanini o’rganishning ilmiy-nazariy asoslari va metadologiyasi.

Ushbu mavzu orqali: "Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari" fanini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari va metodologiyasi — umumta’lim maktablarida musiqa ta’limini samarali tashkil etish, bolalarning estetik tarbiyasini shakllantirish va ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan musiqiy tarbiya jarayonining maqsad, vazifa va prinsiplari, o‘qitish shakl va usullarining ilmiy asoslarini o‘rganadi. Shuningdek, maktab repertuarini tanlash mezonlari, yosh xususiyatlariga mos qo‘shiqlar va asarlarni saralash metodikasi ham tahlil qilinadi. Fan metodologiyasi musiqa darslarida innovatsion yondashuvlar, integratsiyalashgan o‘qitish va didaktik vositalardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan.

2-MAVZU: Musiqa o‘qitish metodikasi: Tarixiy rivojlanish bosqichlari.

"Musiqa o‘qitish metodikasi: Tarixiy rivojlanish bosqichlari" mavzusi musiqiy ta’lim metodikasining shakllanishi va rivojlanish jarayonini yoritadi. Unda qadimgi Sharq va G‘arbda musiqiy ta’lim an’analari, o‘rta asr maktablaridagi musiqiy tarbiya, Yevropa va Rossiyadagi musiqa pedagogikasi rivoji, shuningdek, O‘zbekistonda musiqa o‘qitishning tarixiy ildizlari tahlil qilinadi. Mavzu orqali musiqa metodikasining bosqichma-bosqich takomillashuvi, taniqli pedagoglar va metodistlarning yondashuvlari, ta’limdagi tarixiy tajribalarning zamonaviy metodikaga ta’siri ko‘rsatib beriladi.

II MODUL: MUSIQA O‘QITUVCHISINING KASBIY SHAKLLANISHI VA METODIK TAYYORGARLIGI: KOMPETENSIYA VA YONDASHUVLAR

3- MAVZU: Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” fanining bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati.

Musiqa daslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi. Mazkur tamoyillar o‘qituvchi hamda o‘quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta’lim asoslari, dars mazmuni, metodlari, darslarning tuzilishi va uning yo‘nalishlarini belgilab beradi. Musiqa o‘qitish tamoyili (tamoyil) - bu musiqiy ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan talablar yig‘indisidir.

4- MAVZU: Musiqa ta’limi o‘qituvchisining kompetensiyasi va uning musiqa ta’limida o‘rni

Ushbu mavzuda musiqa ta’limi sohasida o‘qituvchining o‘rni va uning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan kompetensiyalar tahlil etiladi. Avvalo, "kompetensiya" tushunchasining mohiyati ochib berilib, uning musiqa ta’limidagi amaliy ahamiyati yoritiladi. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik va maxsus musiqiy kompetensiyalari hamda ularning o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, musiqa ta’limi jarayonida o‘qituvchi kompetensiyalarining samarali qo‘llanilishi orqali o‘quv jarayonining sifatini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Yakuniy qismda milliy va xorijiy tajribalar asosida musiqa o‘qituvchisining kompetensiyalarini shakllantirish yo‘llari ko‘rsatilib, ta’lim sifatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur mavzu bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari, pedagoglar hamda ta’lim tizimi mutaxassislari uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

5-MAVZU Musiqa ta’limi o‘qituvchilarining metapedagogik kompetensiyani shakllantirish.

Mazkur mavzu musiqa ta’limi o‘qituvchilari faoliyatida metapedagogik kompetensiyaning shakllanishi va uning zamonaviy ta’limdagi ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Unda metapedagogik kompetensiya tushunchasi, uning mazmuni va ta’lim jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Musiqa o‘qituvchisining reflektiv (o‘z faoliyatini tahlil qila

oladigan) pedagog sifatida shakllanishi, bu yo'ldagi muhim bosqichlar va pedagogik tajribalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, metapedagogik kompetensiyaning amaliy jihatdan ta'lim sifati, dars samaradorligi va o'quvchining musiqiy rivojlanishiga ta'siri ochib beriladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ushbu kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik-uslubiy asoslari, innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajribalarga ham e'tibor qaratiladi. Mavzu musiqa ta'limi sifati va o'qituvchilik mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

6-MAVZU: Musiqa ta'limida 4k: ko'nikmalarini (kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya va tanqidiy fikrlash) shakllantirish metodikasi.

Ushbu mavzu zamonaviy ta'lim konsepsiyasi – 4K: kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya va tanqidiy fikrlash kabi asosiy ko'nikmalarni musiqa ta'limi jarayonida shakllantirish metodikasini yoritadi. Avvalambor, ushbu ko'nikmalarning mazmuni va ularning o'quvchi shaxsiy rivojlanishidagi roli ochib beriladi. Mavzuda kreativlikni musiqa vositasida rag'batlantirish yo'llari, o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish, guruhda ishlash (kollaboratsiya) orqali ijtimoiy faollikni oshirish, shuningdek, musiqiy tahlil asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va ilg'or tajribalar asosida bu ko'nikmalarni musiqa ta'limida qo'llash imkoniyatlari ochib beriladi. Mazkur mavzu pedagoglar, talabalar va bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun dolzarb nazariy va amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi.

III-MODUL: TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA DARSLARI VA MASHG'ULOTLARNI TUZILISHI VA TASHKIL ETISH

7-MAVZU: Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining tuzilishi va o'ziga xosligi.

Mazkur mavzuda umumta'lim maktablarida musiqa darslarining tuzilishi, maqsad va vazifalari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Darsning asosiy maqsadi – o'quvchilarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish, estetik didni rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat ekani ta'kidlanadi. Musiqa darslarining tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi, darsning bosqichma-bosqich qurilishi va metodik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik metodlar, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvlar va motivatsion omillar tahlil qilinadi. Mavzuda musiqa darslarining samaradorligini oshirish, ularni mazmunan boyitish va zamonaviy talablarga moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu mavzu musiqa o'qituvchilari, talaba-pedagoglar va metodistlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

8-MAVZU: Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa darslarini tashkil etish metodikasi.

Mazkur mavzu bolalar musiqa va san'at maktablarida olib boriladigan musiqa darslarining o'ziga xos jihatlari, o'quv dasturi mazmuni va ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini yoritadi. Darslarning badiiy-estetik yo'nalishda olib borilishi, yoshga mos ijodiy yondashuvlar, shuningdek, san'at maktablariga xos metodik xususiyatlar chuqur tahlil qilinadi. Mavzuda musiqa darslarini tashkil etishdagi o'qitish usullari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va musiqiy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar bayon qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda individual yondashuvning ahamiyati, ijro va nazariy bilimlarning uyg'unligi ham ko'rsatib o'tiladi. Ushbu mavzu musiqa o'qituvchilari, metodistlar va san'at ta'limi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim manba hisoblanadi.

9- MAVZUZ: Musiqa darslarida o'quvchi shaxsiyatini rivojlantirishda yosh xususiyatlariga mos o'qitish metodikasi.

Ushbu mavzuda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda musiqa darslarini tashkil etishning metodik asoslari hamda shaxsiy rivojlanishga ta'siri yoritiladi. Avvalo, inson shaxsiyatining individual-psixologik xususiyatlari turli yosh bosqichlarida qanday

namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mavzuda boshlang'ich, o'rta va balog'at yoshidagi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, ruhiy holatlari va rivojlanish darajalari alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, musiqani o'qitishda yosh xususiyatlarini inobatga olishning zarurati, mos metodlar tanlash, darslar mazmunini moslashtirish hamda har bir bosqich uchun samarali pedagogik yondashuvlar taqdim etiladi. Balog'at davrida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari ham yoritilib, musiqiy ta'lim orqali o'quvchi shaxsining ma'naviy-ruhiy rivojiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mavzu amaliy faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va bo'lajak pedagoglar uchun foydali nazariy va metodik manba hisoblanadi.

10- MAVZU: Darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar: to'garaklar va ommaviy tadbirlar tashkil etish metodikasi. Shaxs faolligiga ta'siri.

Mazkur mavzuda darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari va ularning o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ta'siri ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. To'garaklar, ommaviy tadbirlar, musiqiy tanlovlar va loyihalar orqali o'quvchilarda musiqiy did, ijtimoiy faollik, sahnaviy madaniyat va ijodiy tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar shakllari, tashkil etish bosqichlari, pedagogik yondashuvlar va metodik uslublar bayon etiladi. Mavzuda O'zbekiston maktablaridagi mavjud amaliyot tahlili, shuningdek, Vengriya, Yaponiya, AQSh va Rossiyadagi ilg'or tajribalar taqqoslanadi. Darsdan tashqari musiqiy faoliyatning ijtimoiy faol, estetik jihatdan rivojlangan, tashabbuskor shaxs tarbiyasidagi o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi. Mavzu musiqa o'qituvchilari, metodistlar hamda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalar uchun nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

IV-MODUL: MUSIQA O'QITISHDA TAMOYILLAR, ILG'OR TAJRIBALAR, ZAMONAVIY METOD VA YONDASHUVLAR

11-MAVZU:Musiqa o'qitishda ta'limning umumiy pedagogik va maxsus usullaridan foydalanish. Musiqani o'yinlashtirish orqali o'rgatish

Ushbu mavzuda musiqa ta'limida qo'llaniladigan umumiy pedagogik va maxsus metodlarning mohiyati, ularning o'quv jarayonidagi roli va samaradorligi tahlil qilinadi. Dastlab metod tushunchasining ta'limdagi o'rni va vazifalari umumiy pedagogika nuqtayi nazaridan yoritiladi. So'ngra musiqiy ta'limga xos bo'lgan maxsus usullar – tinglash, kuylash, ijro, improvizatsiya, musiqiy tahlil kabi faoliyatlar orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari bayon etiladi. Mavzuda Orff, Kodály, Dalcroze, Kabalevskiy va Abdullin kabi taniqli metodistlarning ilg'or tajribalari va ularning zamonaviy ta'limga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston musiqa ta'limida milliy qadriyatlar asosida shakllanayotgan pedagogik yondashuvlar va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi. Mavzu yakunida musiqa o'qituvchilari uchun metodik-amaliy tavsiyalar berilib, o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi uslublar taklif etiladi. Shuningdek, Columbia universitetining musiqa fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishi o'qitish uslubi, dasturlari tahlil qilinib undagi mavzulardan 1tasi ushbu fan dasturiga kiritilgan. "Musiqani o'yinlashtirish orqali o'rgatish ushbi" mavzusi orqali musiqiy bilim va ko'nikmalarni o'yin shaklida o'rgatish usullari, ularning bolalarda qiziqish, faol ishtirok va ijodkorlikni rivojlantirishdagi roli qisqacha yoritiladi.

12- MAVZU: Musiqa o'qitishning umumpedagogik (umumdidaktik), psixologik va musiqiy ta'lim tamoyillari.

Mazkur mavzuda musiqa ta'limi jarayonida qo'llaniladigan umumpedagogik (umumdidaktik), psixologik va maxsus musiqiy ta'lim tamoyillari har tomonlama yoritiladi. Dastlab ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi umumiy pedagogik prinsiplarning (ilmiylik, tizimlilik, izchillik, faoliyatga yo'naltirish, individual yondashuv va boshqalar) musiqa darslaridagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning yoshga

oid psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berish zarurati, bu orqali samaradorlikka erishishning psixologik tamoyillari yoritiladi. Mavzuda, shuningdek, musiqa ta'limiga xos bo'lgan maxsus metodik prinsiplarning (emosional-ta'sirchanlik, musiqiy tasavvurlarni shakllantirish, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish) amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu tamoyillar musiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarni estetik tarbiyalash va mustahkam bilim berish jarayonida muhim vosita sifatida ko'rsatiladi. Mavzu musiqa o'qituvchilari uchun nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

13- MAVZU: Musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishda integratsion yondashuvlar.

Mazkur mavzuda musiqa ta'limi metodikasini takomillashtirishda integratsion yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Integratsiya — bu fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini chuqurlashtirish vositasi sifatida talqin etiladi. Musiqa darslarini boshqa fanlar, xususan, adabiyot, tarix, san'atshunoslik, texnologiya bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning musiqiy didi, estetik dunyoqarashi va madaniy tafakkurini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini integratsion darslarga tayyorlash, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan qurollantirish muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, integratsion yondashuv asosida yaratilgan darslarda o'quvchining shaxsiy faolligi, tahliliy fikrlashi va madaniy kompetensiyasi yanada rivojlanadi. Mavzu musiqa o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

14- MAVZU: Musiqa ta'limida dunyo tajribasi: Finlandiya, Rossiya, Yaponiya, Singapur va Janubiy koreyea musiqa o'qitish metodikasi..

Ushbu mavzu dunyo miqyosidagi turli davlatlarda musiqa o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari va tajribalarini tahlil etishga qaratilgan. Mavzuda, ayniqsa, Finlandiya, Rossiya, Yaponiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlardagi musiqa ta'limi tizimlari ko'rib chiqiladi. Har bir mamlakatda musiqa ta'limining asosiy tamoyillari, metodik yondashuvlari, o'quv dasturlari va o'qitish uslublari alohida tahlil qilinadi. Finlandiya musiqa ta'limining innovatsion metodlari, Rossiyaning umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi tizimi, Yaponiyaning an'anaviy va zamonaviy yondashuvlari, Singapurdagi musiqiy ta'limning yuqori samaradorligi va Janubiy Koreyaning kreativ pedagogik uslublari o'zaro taqqoslanadi. Mavzu yakunida, yuqoridagi mamlakatlar o'rtasida musiqa ta'limining samaradorligini taqqoslash uchun maxsus jadval tayyorlanadi. Ushbu mavzu ta'lim metodistlari, musiqa o'qituvchilari va pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi.

15-MAVZU: Musiqa o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: individual va differensial yondashuvlar.

Ushbu mavzuda musiqa ta'limida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tushunchalari va uning ta'lim tizimidagi o'rni, shuningdek, individual va differensial yondashuvlarning mohiyati, farqlari va amaliy qo'llanilishi yoritiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - har bir o'quvchining ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim berishning muhim prinsipi sifatida ko'rib chiqiladi. Individual va differensial yondashuvlar o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda metodlarni tanlash va ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llaniladi. Mavzuda musiqa ta'limi kontekstida bu yondashuvlarning qanday ishlatilishi, ularning o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda konkret misollar bilan ko'rsatilgan metodik tavsiyalar taklif etiladi. Bo'lajak oliy ta'lim o'qituvchilari (magistrantlar) uchun individual va differensial yondashuvlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar hamda talaba (o'quvchi) uchun metodik ko'rsatmalar taqdim etiladi.

16-MAVZU: Musiqa ta'limida inklyuzivlik: nazariy asoslar va metodik yondashuvlar.

Mavzu musiqa ta'limida inklyuzivlikning nazariy asoslarini va metodik yondashuvlarini o'rganishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim — bu har bir o'quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga barcha o'quvchilarni teng va barqaror ravishda jalb qilishni maqsad qilgan yondashuvdir. Mavzuda inklyuziv musiqa ta'limining nazariy asoslari, uning prinsip va tamoyillari, shuningdek, musiqa ta'limidagi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning muhim metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. O'quvchilarning turli xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan metodik usullarni qo'llash ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limning ilg'or tajribalari va O'zbekiston hamda xorijiy davlatlardagi amaliyotlar o'rganiladi. O'zbekistondagi musiqa ta'limi tizimida inklyuzivlikni amalga oshirishning mavjud holati, xorijda esa, masalan, Skandinaviya yoki AQSh kabi davlatlardagi muvaffaqiyatli tajribalar misollarida ko'rsatiladi. Ushbu mavzu pedagogika mutaxassislari, musiqa o'qituvchilari va ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni amalga oshirishni istagan har bir mutaxassis uchun foydali bo'ladi.

17-MAVZU: STEAM va musiqa ta'limi

Ushbu mavzu STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'limi konsepsiyasini va uning musiqa ta'limiga qanday integratsiya qilinishini tahlil qilishga qaratilgan. STEAM yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarda yaratish, innovatsiya va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilgan. Mavzuda STEAM ta'limining umumiy konsepsiyasi va ta'limdagi roli, shuningdek, musiqa ta'limida STEAM integratsiyasining ilmiy asoslari ko'rib chiqiladi. Musiqa ta'limi sohasida STEAM yondashuvi musiqiy didni rivojlantirish bilan birga, o'quvchilarga ilmiy va texnologik qobiliyatlarni ham mustahkamlash imkonini beradi. Bu yondashuvning afzalliklari, musiqiy faoliyatda matematika, ilm-fan va texnologiyalarning o'zaro bog'lanishi orqali o'quvchilarni yanada kengroq va zamonaviy musiqiy ko'nikmalarga ega qilishga yordam beradi. Mavzuda, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar uchun ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish va umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarida STEAM metodlarini qo'llashning imkoniyatlari muhokama qilinadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun STEAM yondashuvini qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ham taqdim etiladi. Ushbu mavzu musiqa ta'limi sohasida innovatsion metodlarni joriy etishga qiziqqan o'qituvchilar va pedagoglar uchun foydali bo'ladi

18-MAVZU: Maktab repertuarini tanlashda, milliy musiqa va xalq qo'shiqlarining o'rni.

Ushbu mavzu maktab repertuarida milliy musiqa va xalq qo'shiqlarining o'quvchilar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi o'rnini tahlil qilishga qaratilgan. Maktab repertuari o'quvchilarning nafaqat musiqa didini, balki ularning milliy va estetik qadriyatlarini ham shakllantiradi. Mavzuda milliy musiqa namunalarini tanlash mezonlari, shuningdek, xalq qo'shiqlari asosidagi ijodiy faoliyat (xonandalik, cholg'uchilik, sahnalashtirish)ni rivojlantirishning metodik jihatlari ko'rib chiqiladi. Xalq qo'shiqlari o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishda, ularni milliy madaniyatga nisbatan hurmat va muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Maktab repertuari orqali milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishda musiqa asarlari muhim vosita sifatida ishlatiladi. Badiiy-g'oyaviy ta'sir orqali milliy tarbiyani shakllantirish, ayniqsa, yosh avlodning milliy identifikatsiyasini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, metodik yondashuvlar orqali maktab repertuaridagi musiqa asarlarining ma'naviy va estetik ta'sirini samarali ishlatish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Mavzu musiqa o'qituvchilari va pedagoglar uchun milliy musiqaning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

III. Seminar mashg'uloti.

1. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari fanini o'rganishning ilmiy-nazariy

asoslari va metadologiyasi
2. Musiqa o'qitish metodikasi: Tarixiy rivojlanish bosqichlari.
3. "Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fanining bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati
4. Musiqa ta'limi o'qituvchisining kompetensiyasi va uning musiqa ta'limida o'rni
5. Musiqa ta'limi o'qituvchilarining metapedagogik kompetensiyani shakllantirish.
6-7. Musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'quvchi va talabalarda 4K: ko'nikmasini shakllantirish.
8. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining tuzilishi va o'ziga xosligi.
9. Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa darslarini mazmuni, maqsad va vazifalari
10. Musiqa darslarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos o'qitish metodikasi.
11-12. Darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar: to'garaklar va ommaviy tadbirlar tashkil etishmimg shaxs faolligiga ta'siri.
13. Musiqa o'qitishda ta'limning interafaol metodlari va maxsus usullardan foydalanish.
14. Musiqa o'qitishning psixologik, pedagogik va musiqiy ta'lim tamoyillari.
15. Musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishda integratsion yondashuvlar.
16-17. Musiqa ta'limida dunyo tajribasi: Finlandiya, Rossiya va Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya metodikasi.
18. Musiqa o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: Individual va differensial yondashuvlar.
19. Musiqa ta'limida inklyuzivlik: nazariy asoslar va metodik yondashuvlar
20. STEAM va musiqa ta'limi
21. Maktab repertuarida milliy musiqa va xalq qo'shiqlarining o'rni
22. Maktab darslari uchun tavsiya etilgan musiqiy asarlari va ularning musiqiy va badiiy – g'oyaviy tahlili

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. **Musiqa o'qitish metodikasining tarixiy bosqichlari jadvalini tuzish.** (Jadval: asosiy bosqich nomi, vaqti, yirik namoyandalar, metodik yondashuvlar.)
2. **Tarixiy shaxslarning musiqa ta'limini rivojiga oid jihatlarini tadqiq qilish.** (Quyidagi shaxslardan birini tanlang (Farobiy, Ibn Sino, D.B.Kabalevskiy, Uspenskiy, Shatskiy) va ularning musiqa ta'limiga qo'shgan hissasi haqida slayd tayyorlang.)
3. **Metodika, tamoyil, metodologiya, kompetensiya atamalarini ilmiy-nazariy asoslarni aniqlang.** (Ushbu atamalarning ma'nosini izohlash va ularni musiqa o'qitishdagi ahamiyatini misollar bilan tushuntirish)
4. O'zbekiston maktablaridagi musiqa metodikasi bilan bir xorijiy davlat (masalan, Yaponiya, Finlyandiya va boshqa…) tajribasini taqqoslash.
5. **Maktab repertuaridan namunalarni metodik tahlil qilish.** (Musiqa asarning pedagogik maqsadi, yoshga mosligi, metodik yondashuvi, qo'shiqning ifodaviy vositalari (ritm, ohang, matn)
6. **Musiqa o'qituvchisining kompetensiyasi. "Ideal musiqa o'qituvchisi" modelini tuzish.** (Bu modelda quyidagi kompetensiya turlarini belgilash: musiqiy-ijodiy, pedagogic, metodikasi, texnologik (raqamli vositalardan foydalanish)
7. **Metapedagogik kompetensiyani rivojlantirish loyihasi ustida ishlash.** (Yozma yondashuv 300 so'z + sinf faoliyati ssenariysini tuzish.
8. **4K ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dars loyihasi ustida ishlash.** (Musiqa darsida 4K ko'nikmalarini shakllantiruvchi mashg'ulot (mini-dars) loyihasini ishlab chiqish: Qaysi qo'shiq yoki asar asosida o'tiladi?, qaysi ko'nikma rivojlanadi?, qanday interaktiv usullar qo'llaniladi? (masalan: jamoaviy musobaqa, jamlab ijro qilish)
9. **Musiqa darsi tuzilishini tahlil qilish.** (Quyidagi sinflar uchun mos pedagogik yondashuv

va metodlarni moslash: 1-2-sinf, 5-7-sinflar.
10. **To'garak uchun ish rejasi ishlab chiqish.** Darsdan tashqari mashg'ulotlar va shaxs faolligi.
11. **Interfaol metodlar asosida mini-dars loyihasini tuzish.** (5–7-sinf o'quvchilari uchun musiqa darsiga "Insert", "Aqliy hujum", "Fishbone", "Rolga kirish" kabi interfaol metodlardan birini tanlang va shunga asoslangan 1 soatlik mini-dars loyihasini tuzish.)
12. **Tamoyillar asosida taqqoslovchi tahlil jadvali tuzish: Psixologik, pedagogik va musiqiy ta'lim tamoyillari asosida.**
13. **Integratsion dars ssenariysini tuzish. Musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishda integratsion yondashuvlar.** (Musiqa fanini boshqa fan (adabiyot, tarix, texnologiya, tasviriy san'at) bilan integratsiyalab 1 dars ssenariysi tuzish.)
14. **Dunyo tajribasini amaliyotdagi ko'rinishi: Finlandiya, Yaponiya, Singapur va b. Davlatlar musiqa o'qitish metodikasi tahliliy o'rganish.** (Jadval shaklida)
15. **Individual va differensial yondashuv bo'yicha dars loyihasi ishlab chiqish.** (O'quvchilarning qobiliyat darajasiga qarab quyidagi 3 guruhga mo'ljallangan topshiriqlar ishlab chiqish: Boshlang'ich (asosiy ifoda), O'rtacha (qo'shimcha kuylash, ritm), Yuksak (mustaqil ijro, improvizatsiya).
16. **Inklyuziv dars faoliyati: Musiqa ta'limida inklyuzivlik: Musiqa darsida maxsus ehtiyojli bolalar ishtirokini inobatga olgan holda 1 dars loyihasini tuzish.** (Harakatda cheklangan bola uchun o'zgaruvchi topshiriq, Eshitishda qiyinchilik bo'lgan bola uchun vizual qo'llanmalar, Oddiy o'quvchilar bilan umumiy faoliyat olib borish. Loyihada: metodik moslashuvlar, vizual materiallar va baholash shakli keltirish.
17. **STEAM asosidagi musiqa darsini tashkil etish. Musiqa fanini STEAM elementlari (Science, Technology, Engineering, Arts, Math) bilan bog'lab mini-loyiha ishlab chiqish.** (Taqdimot shaklida).
18. **1-2- sinf musiqa madaniyati darslarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlar. Talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash.** (1-4- chorak mavzulari bo'yicha.)
19. **3-4- sinf musiqa madaniyati darslarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlar. Zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash.** (1-4- chorak mavzulari bo'yicha.)
20. **5-7- sinf musiqa madaniyati darslarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlar. Zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash.** (1-2- chorak mavzulari bo'yicha.)

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat, kitob va maqolalarga annotatsiya (3 bet ≤ A ≥5 bet) yozish;
- internet tarmog'idan axborotlar izlash, tahlil etish va videoroliklarni lavhalar (subtitles) orqali tayyorlash (2 minutdan ko'p bo'lmagan);
- 1-7 sinf musiqa savodxonligi va musiqa darsliklari mavzulari asosida 3 ta faoliyatni qamrab olgan holda dars ishlanmasini ishlab chiqish va taqdimotlar tayyorlash. (Taqdimot tayyorlashda va dizayn tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisbobga olish zarur). Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;
- Umumta'lim maktablari musiqa darsligi dasturida berilgan mavzular bo'yicha, musiqa savodxonligi faoliyatini samaradorligini oshrishda assisment texnologiyasi asosida topshiriq ishlab chiqish;
- Turli metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish, musiqa darslariga mosini tanlashda misollar asosida shakllantirish;
- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va topshiriqlar.

1. **Fan predmetining nazariy asoslarini o'rganish: Topshiriq:** "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" fanining ilmiy asoslari, zamonaviy metodologik

yondashuvlari va ularning kasbiy tayyorgarlikdagi o‘rni haqida ilmiy maqola tayyorlash. (5–6 sahifa, kamida 3 ta ilmiy manba bilan).

2. Psixologik-pedagogik tamoyillarga asoslangan dars modeli. Topshiriq: 5-sinf o‘quvchilari uchun yosh psixologiyasi va didaktik tamoyillarga asoslangan holda “xalq qo‘shiqlari” mavzusida dars loyihasi yaratish. Loyihada quyidagilar bo‘lishi shart: maqsad, natija, metodlar, refleksiya, baholash mezonlari, yakuniy natija.

3. Tarixiy rivojlanish asosida tahliliy jadval tuzish: XX asrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan maktab musiqa ta’limining rivojlanish bosqichlari asosida jadval tuzish. Har bosqichda: asosiy metodik tendensiya, yondashuvlar, (olimlar, metodistlar), ta’limda qo‘llanilgan an’anaviy va zamonaviy metodlar.

4. Fanlararo integratsiyani amalda qo‘llash: 6-sinfda o‘tiladigan dars uchun “Tarix + musiqa + san’at” integratsiyasi asosida STEAM yondashuvini qo‘llagan holda dars loyihasi yarating. Loyiha natijasi sifatida o‘quvchilar “Amir Temur davrida musiqa” nomli mini-prezentatsiya yoki ijro chiqish tayyorlashlari kerak.

5. Repertuar turlarini differensial tahlil qilish: Bolalar, xalq va akademik repertuarlarni kompozitsion, didaktik va vokal qiyinchilik darajalari bo‘yicha tahlil qilib, taqqoslovchi jadval tuzing. Jadvalda quyidagilar bo‘lsin: janr, texnik murakkablik, yosh mosligi, tarbiyaviy ahamiyati, ifodaviylik.

6. 4K kompetensiyalar asosida dars dizayni ishlab chiqish: “Har bir o‘quvchi – ijodkor” konsepsiyasiga asoslangan holda 4K kompetensiyalar (kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash) ni rivojlantiruvchi musiqa darsini loyihalashtirish. Har kompetensiya uchun individual topshiriq va yakuniy ijodiy natija (loyiha, chiqish, mualliflik musiqasi) taklif qiling.

8. Repertuar tizimlashtirish: yosh, qobiliyat va ijtimoiy kontekst asosida: 1–7-sinflar uchun musiqa repertuarini yosh davri va kognitiv-emotsional xususiyatlar asosida tahlil qilish. Har sinf uchun 2 ta namunaviy asarni tanlab, ularni moslik, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyat, ifodaviylik mezonlari asosida baholash.

9. Ijodiy faoliyatga asoslangan repertuar tanlovi

“Maktab ijodiy musiqiy jamoasini shakllantirish” mavzusida metodik tavsiya tayyorlang. Repertuar tanlash mezonlari, mashg‘ulotlar tizimi, konsert faoliyati, baholash uslublarini kiritish. O‘quvchilar ishtirokida bir ijodiy sahna chiqishini (scenariy + musiqa + ifoda) yozib chiqish.

10. 1-7 sinf dasturi asosida taqdimot tayyorlash. (Belgilangan mezonlar asosida)

3.

V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- “Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” kurs sifatida o‘zlashtirilishida talaba, musiqa ta'limi va metodikasining asosiy tamoyillarini tushunish;
- Maktab repertuarini shakllantirishda metodik yondashuvlarni bilishi;
- O'quvchilarni musiqa bilan tanishtirishda samarali metod va texnikalarni bilishi;
- Turli yoshdagi o'quvchilar uchun mos musiqiy asarlarni tanlash va ularni taqdim etish **kompetensiyasiga ega bo’lishi lozim. (Kompetensiyasi)**
- Musiqa ta'limining tarixi, rivojlanish bosqichlari va jahon miqyosidagi tajribalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Maktab repertuarining o'ziga xosligi, uning ta'lim maqsadlariga muvofiqligi va o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga ta'siri haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Musiqaning estetik va ma'naviy ahamiyati haqida **tasavvurga ega bo’lishi lozim.**
- Musiqa darslarini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- Repertuarni tanlashda o'quvchilarni qiziqtirish va motivatsiya qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

- O'quvchilarning musiqiy ijodkorligini rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish **konikamalariga ega bo’lishi lozim. (Ko‘nikma).**
- O'quvchilarga vokal va instrumental san'atni o'rgatish, ularning ijrochi malakalarini rivojlantirishi.
- Repertuarni tizimlashtirish va diversifikatsiyalash malakasiga ega bo'lishi;
- Musiqa o'qitish zamonaviy metodlari va metodik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash malakalsiga ega bo‘lishi kerak. **(Malaka)**

4.

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- *interfaol keys-stadilar;*
- *diologik yondoshuv*
- *SWOT analiz*
- *Wenn diogrammasi*
- *blis so`rov*
- *Ikki qisimlik kundalik*
- *charxpalak*
- *Assisment*
- *Besh minutlik esse*
- *Hamkorlikda o’qitish*
- *Taqoslash*
- *Ko’rgazmalilik*

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.

6.

VIII. Asosiy adabiyotlar

1. G. M. Davronova “Musiqa o’qitish metodikasi” O’quv qo’llanma Samarqand- 2021 yil 192 b.
2. Sharipova G.f Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi I darslik / - Toshkent - ”NIF MSH” - 2020,136 b

IX. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. - 458 b.
2. G.M. Sharipova Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. «Turon-iqbol» nashriyoti Toshkent. 2006 yil. 185 b.
3. G. Sharipova G. Tojiyeva “Musiqa metodikasi”. – T: O‘zbekiston faylasuflar, 2012 y
4. D.Soipova “Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish”. T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.
5. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi “ Ta’lim taraqqiyoti” - T. “Sharq” nashriyoti – 2009 y.
6. N.P.Cheryomuxina “Musiqa savodxonligi” 1- 4 sinflar uchun darsliklar. Novda Toshkent 2023 yil.
7. A. Mansurov, D. Karimova “Musiqa” 5 -sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6 - nashri. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2020 y. 96 b.
8. S. Begmatov “Musiqa” 6 -sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6- nashri. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2015 y. 96 b.
9. Oqilxon Ibragimov, Jamil Sadirov “Musiqa” 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2017 y. 160 b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF - 6108 - son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

Axborot manbaalari

1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va inovatsiyalar vazirligi sayti.
2. http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.
4. www.pedagog.uz
5. www.apkpro.ru/content/view
6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten
7. www.relarn.ru/conf/conf2007
8. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/
9. http://www.allmath.ru/
10. http://www.ziyonet.uz/
11. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru
12. www.ziyouz.com.kutibxonasi.

7. Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "___" _____ ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan

8. Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:
G.M.Davronova – Samarqand davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti.

9. Taqrizchilar:
Sh.Shaykulov - Samarqand davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti (ichki)
Sh.N.Mustafayev - Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha ditektorning birinchi o'rinbosari pedagogika fanlari doktori (DSc) (tashqi)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingidan 33-o'rinni egallagan Columbia universitetining musiqa fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishi o'qitish uslubi, dasturlari tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.
"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fanining dasturi tayyorlanib 1 ta mavzusi yangilandi

https://www.tc.columbia.edu/arts-and-humanities/music-and-music-education/

Fan dastur Aniq va amaliy fanlar fakultetning 2025-yil 28-fevraldagi 10-f sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi: **G.M.Davronova**

Kafedra mudiri: **B.R.Boltayev**

Fakultet dekani: **Z.A.N. Abdullayev**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor: **N.H.Musulmonov**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq va amaliy fanlar fakulteti, Musiqa ta'limi kafedrasi 60110600 – Musiqa ta'lim yo`nalishi (bakalavr) yo'nalishi uchun

"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fan dasturiga (ichki)

TAQRIZ

"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fan dasturda – musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bo'lajak musiqa fani o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimum belgilab berilgan. Dastur ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohatlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar, boy ma'naviy, musiqiy merosimizga yangicha yondashuvlarni hisobga olib tuzilgan.

Talabalarni kasbiy faoliytaga tayyorlashda musiqa o'qitishning umumiy tamoyillar, maxsus va umumiy metodlari tizimini tushunish orqali, umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim mussalarida musiqa daslari va mashg'uoltlarini sifatli tashkil etishga o'rgatish asosiy maqsadlardan biridir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini mukammal tashkil etilishida, fan dasturlari va sillabuslar mukammal darajasida bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan dasturi: kirish, soatlar rejasi, mavzular bayoni va adabiyotlar ro`yxatini o`zida aks ettirganligi, shuningdek mustaqil ta`lim mavzularining ham o`rin egallaganligi dasturga qo'yilgan talablar asosida tayyorlanganligini ko'rsatadi.

"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fani bo'lajak musiqa o'qituvchisining, yetuk kadr siftida jamiyatda tutgan o'rni, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni o'qitish.; musiqa o'qitishning zamonaviy metodlarini uzluksiz kuzatish va o'rganish, bugungi kunda ma'lumotlar, axborotlar to'plashni naqadar zarurligini his qilish, talabalarga qo'yilgan maqsadga ko'ra to'plangan axborotlarni qayta ishlash, taqqoslash, qiyoslash, tahlil qilishga o'rgatish; talabalar tomonidan musiqa o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliyotda va pedagogik faoliyatda qo'llash imkonini berad.

Bir so`z bilan aytganda mazkur "Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fan dasturi barcha DTS talablariga javob beradi. Mutaxassis o'qituvchi, dastur tuzishda ko`zlangan maqsadiga erishgan deb hisoblayman va ushbu fan dasturini amaliyotga joriy qilishga tavsiya qilaman.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Aniq va amaliy fanlar fakulteti,
Musiqa ta`limi kafedrasi dotsenti v.v.b.: Sh.Shaykulov

Sh.Shaykulov ning imzosini tasdiqlayman
O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti
xodimlar bo'limi boshlig'i

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq va amaliy fanlar fakulteti, Musiqiy ta'lim kafedrasi 60110600 – Musiqa ta'lim yo`nalishi (bakalavr) yo'nalishi uchun

"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fan dasturiga (tashqi)

TAQRIZ

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan talab va takliflar, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta'lim mazmunini takomillashtirish yo'lida ko'plab say-harakatlar olib borilmoqda.

"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fan dasturda – bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda musiqa o'qitishdda umumdidaktik tamoyillar, maxsus va umumiy metodlar tizimini tushunish orqali, umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim mussalarida musiqa daslari va mashg'uoltlarini sifatli tashkil etishga yangicha yondashuvlarni hisobga olib tuzilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonini mukammal tashkil etilishida, fan dasturlari va sillabuslar mukammal darajasida bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan dasturi: kirish, soatlar rejasi, mavzular bayoni va adabiyotlar ro`yxatini o`zida aks ettirganligi, shuningdek mustaqil ta`lim mavzularining ham o`rin egallaganligi dasturga qo'yilgan talablar asosida tayyorlanganligini ko'rsatadi.

"Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fani bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda, musiqa ta'im-tarbiyasi jarayonida, tajribada sinalgan, kafolatli natijaga ega, zamonaviy va samarali dars o'tish usullari xususida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishadi.– pedagogik faoliyatda qo'llashlari imkonini beradi.

Bir so`z bilan aytganda mazkur "Musiqa o'qitish metodikasi. Maktab repertuari" fan dasturi barcha DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Mutaxassis, dastur tuzishda ko`zlangan maqsadiga erishgan va ushbu fan dasturini amaliyotga joriy qilishga tavsiya qilaman.

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on Filiyali yoshlar masalasi ma'naviy -ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari p.f.d., dotsent: Sh.Mustafayev

Sh.Mustafayev ning imzosini tasdiqlayman. Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali xodimlar bo'limi boshlig'i